

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA MASHG'ULOT - TA'LIM BERISHNING ASOSIY SHAKLI

Munisa Berdiyeva
Shoira Abdumalikova
Lola Boyzoqova

Ta'lim muassasasi: Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Mashg'ulot-bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan, ma'lum mavzu asosida bilim berishga qaratilgan ta'limiy faoliyatdir. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim berishning asosiy shakli bo'lgan mashg'ulotning mazmuni va ahamiyati haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, o'qishga tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, qobiliyatlarini ochib berish, maktabdagi o'qishga tayyorlash*

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Mashg'ulot bu oldindan rejalashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan va pedagog rahbarligida olib boriladigan ta'limiy jarayon bo'lib, u maktabgacha ta'limda ta'lim berishning asosiy shakli hisoblanadi.

1. MASHG'ULOT TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI:

Mashg'ulot maktabgacha ta'lim yoshdagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi.

Mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta'lim berish natijasida bilimga qiqishlar rivojlanib boradi.

Mashg'ulotlar orqali:

- bolalarning bilish faolligi oshadi
- muloqot madaniyati va jamoada ishlash malakasi shakllanadi
- maktab ta'limga tayyorgarlik ta'minlanadi.

2. MASHG'ULOTLARNING TURLARI

Bilish mashg'ulotlari-atrof olam bilan tanishtirish, matematika;
Nutqni rivojlantirish mashg'ulotlari-she'r yodlash, hikoya tuzish;
Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari-rasm chizish, applikasiya, loy bilan ishlash;
Musiq va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari-musobaqalar o'tkazish, qo'shiq aytish;
Konstruktiv faoliyat mashg'ulotlari-qurish-yasash.

3. MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH TALABLARI:

1. Bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.
2. Ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning uyg'unligi.

3. Ko'rgazmalilik va o'yin metodlaridan samarali foydalanish.

4. Bolalarning faolligi va qiziqishini ta'minlash.

5. Mashg'ulot davomiyligining me'yorlarga mos bo'lishi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot — ta'lim berishning asosiy shakli. Maktabgacha ta'lim — bu bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda bolaning tafakkuri, nutqi, ijtimoiy munosabatlari, mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoni puxta rejalashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan va samarali shakllarda tashkil etilishi zarur. Bu jarayonda mashg'ulot ta'lim berishning asosiy shakli hisoblanadi.

Mashg'ulot — bu tarbiyachi rahbarligida bolalarga ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni berishga qaratilgan, oldindan rejalashtirilgan pedagogik jarayondir. Mashg'ulotlar orqali bolalar atrof-muhit, tabiat, jamiyat, nutq, matematika, san'at, mehnat va sog'lom turmush tarzi haqidagi dastlabki bilimlarga ega bo'ladilar. Ular bolaning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarning asosiy maqsadi — bolani har tomonlama rivojlantirishdir. Mashg'ulot jarayonida bolaning aqliy rivoji, nutqi, tasavvuri, xotirasi va tafakkuri shakllanadi. Shu bilan birga, mashg'ulotlar bolalarda intizom, diqqatni jamlay olish, tinglash va topshiriqlarni bajarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa keyinchalik maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashishiga zamin yaratadi. Mashg'ulotlar turli shakl va usullarda olib boriladi.

An'anaviy mashg'ulotlar bilan bir qatorda, o'yin asosidagi, integratsiyalashgan, ijodiy va interfaol mashg'ulotlar ham keng qo'llaniladi. O'yinli mashg'ulotlar bolalar uchun eng samarali shakllardan biri bo'lib, ular orqali bolalar oson va qiziqarli tarzda bilim oladilar. Chunki o'yin — maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati hisoblanadi. Mashg'ulotlarning samaradorligi ko'p jihatdan tarbiyachining kasbiy mahoratiga bog'liq. Tarbiyachi bolalar bilan ishlashda sabrli, mehribon, ijodkor va tashabbuskor bo'lishi lozim. U mashg'ulot davomida bolalarning faolligini oshirishi, ularni mustaqil fikrlashga undashi va har bir bolaning ishtirokini ta'minlashi zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish mashg'ulotlarning sifatini yanada oshiradi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot ta'lim berishning asosiy va eng muhim shakli hisoblanadi. U bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning bilimiga bo'lgan qiziqishini oshirish va maktab ta'limiga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. To'g'ri tashkil etilgan, mazmunli va qiziqarli mashg'ulotlar sog'lom, bilimli va barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning dastlabki va muhim bo'g'ini hisoblanib, unda bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik hamda ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Mazkur bosqichda bolaga beriladigan ta'lim va tarbiya uning keyingi ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi hamda jamiyatga moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda mashg'ulot ta'lim berishning asosiy va yetakchi shakli sifatida e'tirof etiladi.

Pedagogik adabiyotlarda mashg'ulot tushunchasi tarbiyachi rahbarligida bolalarga muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan, oldindan rejalashtirilgan, maqsadli pedagogik faoliyat sifatida talqin etiladi. Mashg'ulotlar davlat ta'lim standartlari va maktabgacha ta'lim dasturlari asosida tashkil etilib, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi.

MASHG'ULOTNING ASOSIY MOHIYATI:

Bolalarda bilishga qiziqishni uyg'otish, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu bilan birga, mashg'ulotlar bolalarning nutqiy faoliyati, muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

MASHG'ULOTLARING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi asosiy pedagogik vosita hisoblanadi. Mashg'ulot jarayonida bolalar atrof-muhit bilan tanishadi, tabiat va jamiyat hodisalari haqida dastlabki tushunchalarga ega bo'ladi, elementar matematik tasavvurlari, nutqi va ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Mashg'ulotlarning ahamiyati shundaki, ular orqali bolalarda bilim olishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Mashg'ulot jarayonida bolalar diqqatni jamlash, topshiriqlarni izchil bajarish, tinglash va o'z fikrini ifodalash ko'nikmalarini egallaydilar. Bu esa bolani maktab ta'limiga psixologik va intellektual jihatdan tayyorlashga xizmat qiladi.

MASHG'ULOTNI TURI VA SHAKILLARI:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar mazmuniga ko'ra turli yo'nalishlarda tashkil etiladi. Jumladan, nutqni rivojlantirish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, tabiat va atrof-olam bilan tanishtirish, tasviriy faoliyat, musiqa, jismoniy tarbiya va mehnat mashg'ulotlari mavjud. Mashg'ulotlar tashkil etilish shakliga ko'ra an'anaviy va noan'anaviy turlarga bo'linadi. An'anaviy mashg'ulotlar tarbiyachi tomonidan tushuntirish va ko'rsatma berish asosida olib borilsa, noan'anaviy mashg'ulotlar o'yin, muammoli vaziyatlar, integratsiyalashgan yondashuv hamda interfaol metodlarga asoslanadi. Ayniqsa, o'yin asosidagi mashg'ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng samarali shakl hisoblanadi, chunki o'yin ularning yetakchi faoliyati sanaladi.

TARBIYACHINING MASHG'ULOTINI TASHKIL ETISHDAGI ROLLI:

Mashg'ulotlarning samaradorligi bevosita tarbiyachining kasbiy mahorati, pedagogik bilim va ko'nikmalariga bog'liqdir. Tarbiyachi mashg'ulotlarni rejalashtirishda bolalarning yosh xususiyatlari, individual imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olishi lozim. Mashg'ulot jarayonida tarbiyachi bolalarni faol ishtirok etishga undashi, ularning mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlashi hamda ijodiy yondashuvni rag'batlantirishi zarur. Zamonaviy maktabgacha ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va interfaol metodlardan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini oshiradi. Bu esa ta'lim jarayonining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

XULOSA:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot ta'lim berishning asosiy shakli bo'lib, u bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ri rejalashtirilgan

va samarali tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda bilimga qiziqishni kuchaytiradi, ularni maktab ta'limiga tayyorlaydi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishiga mustahkam zamin yaratadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimida mashg'ulotlarni ilmiy asosda tashkil etish va doimiy takomillashtirib borish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berish talab etiladi, ya'ni u bolani aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur: mashg'ulotning vaqtini, kun tartibidagi o'rnini dasturning har xil bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni
2. „Ilk qadam“ davlat o'quv dasturi.
3. Salayeva M. MTTda mashg'ulotlarni rejalashtirish va tashkil etish. - Toshkent.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi metodik qo'llanmalari.